

O'QUVCHILARDA ESSE YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Po'latova Sevinch Yaqub qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: *Maqolada ona tili darslarida esse tuzilishini o'rgatishga doir tavsiyalar haqida so'z boradi. Esse matn turining boshqa yozma ishlardan farqi va o'ziga xosliklari yoritilgan. Maktab ta'limida kuzatilayotgan esse yozishga oid muammolar, ularni bartaraf etish va rivojlantirishga doir mashqlar belgilash bo'yicha asosiy yondashuv va tamoyillar aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *yozma nutq, og'zaki nutq, yozma ish va uning turlari, esse turlari, ayrim xatolar, tavsiyalar.*

The article *discusses recommendations for teaching essay structure in mother tongue lessons. It highlights the differences and distinctive features of the essay as a type of written work compared to other written tasks. The article also identifies the problems observed in writing essays in school education and outlines the main approaches and principles for addressing and improving them through targeted exercises.*

Keywords: *written speech, oral speech, types of written work, types of essays, common mistakes, recommendations.*

Yozma nutq ko'nikmasini o'quvchilarda shakllantirish faqat bugungi kun oldidagi masala emas. Unga avvaldan e'tibor qaratilgan. Negaki yozma nutq o'quvchilarning fikrlash doirasini, tahlil va mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunisi e'tiborliki, og'zaki nutqqa qaraganda yozma nutq yozuvchidan ancha mashaqqat talab qiladi.

Ushbu mashaqqat yo'lida jadid bobolarimiz ham ko'p izlanishlar olib borganlar. Xususan, ular o'zlari yaratgan darslik va yozgan maqolalarida yozma

ish turlarini shakllantirishga ahamiyat berishgan. O'quvchilarga beriladigan matnlar, insholarning mazmuni, sodd-murakkabligiga alohida urg'u berishgan.

Inson qaysi kasb egasi bo'lmasin, yuksak tafakkur sohibi bo'lsagina, yangilik yarata oladi. Yangilik yarata olish esa ona tili ta'limida og'zaki va yozma nutq shaklida namoyon bo'ladi. Demakki, maktab ta'lim beruvchilaridan kutiladigan narsa o'quvchilarni yangilikka intiladigan, keng tafakkur egasi va erkin fikrli shaxs sifatida yetishtirib berishdan iborat.

Zamon bilan hamnafas yashash, ta'lim sohasida, fan doirasida jahonning ilgo'r tajribalarini ta'lim tizimimizga joriy etish, shu yo'l bilan sifatli ta'lim jarayonlaridan andoza olish va yuksak natijalarga erishish hayotiy zaruriyatga aylandi. Shu sababdan ona tili ta'limida ham bir qator xorijiy tajribalar qo'llanilishi kuzatilmoqda.

Muhokama

Yozma shaklda bajarilgan ijodiy matnlar (insho, ijodiy bayon), tinglab tushunish, xotira kuchini belgilash, tafakkur darajasi va fikrni yozma tarzda bayon etish ko'nikmasini aniqlashga (bayon), so'zma-so'z tinglash va ayni tarzda yozma nutqda aks ettirish, imlo me'yorlariga amal qilish darajasini bilishga mo'ljallangan (diktant) matnlar.

Diktant- o'quvchilarning savodlilik darajasini oshirish, bilimlarini mustahkamlash, yozma nutq me'yorlariga amal qilish va yozuv qoidalarini singdirish maqsadlariga xizmat qiladigan yozma ish turi.

Bayon- yozma ishlarning asosiy turlaridan biri bo'lib, o'quvchining matn mazmunini o'z so'zi bilan yozma ravishda qayta bayon etishdan iborat ijodiy ish.

Insho- muallifning ma'lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turi. Insho muallif tomonidan ijod etiladi, yaratiladi. Insho yozishda muallifdan fikr-mulohazalarini faktik material asosida mantiqan izchil va badiiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda bayon etish

talab qilinadi.¹

Hozirgi globallashuv jarayoni o'quvchidan ijodiy fikrlash bilan birga tanqidiy va tahliliy fikrlashni talab qilmoqda. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab esa pedagogikada o'zlashtirilgan bilimlar darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziluvchi metod sifatida qo'llanila boshladi. Esseni metod sifatida qo'llash taklifi 1998- yilda Templ universiteti o'qituvchilari Lee va Bropliy tomonidan ilgari surilgan. Chet tilini bilish darajasini belgilovchi xalqaro IELTS, TOEFL kabi imtihonlarda, ona tili fanidan Milliy sertifikat uchun o'tkaziladigan sinovlarda esse yozma nutq (Writing) malakasini baholovchi yozma ish turi sifatida qo'llanadi.

Gulshan Asilova va Fatma ACIKning "Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari" kitobida yozma nutqning bir turi hisoblangan esse haqida zaruriy bilimlar berib o'tilgan. Quyida shu fikrlar bilan tanishamiz va tahlil qilamiz.

Esse (fransuzchada "tajriba", "mashq" ma'nosini bildiradi)-adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik mavzularda yoziladigan, muammolar tizimli ilmiy tarzda emas, erkin shaklda yoritiladigan nasriy asar. Ta'lim jarayonida yozdiriladigan esse turlari adabiy essedan farq qiladi. Biroq har ikkisining ham yetakchi xususiyati muallifning fikri, munosabati, qarashlari, taassurotlarini ifodalashdir.

Dalillovchi esse(argumentli esse, mulohazali esse, muhokama esse, diskursiv esse):

- berilgan mavzu bo'yicha muallif tomonidan muayyan nuqtayi nazar (pozitsiya) tanlanadi;

- muallifning mavzu doirasidagi shaxsiy fikri va mulohazalari bayon qilinadi;

- tanlangan pozitsiya bo'yicha fikrlar asosli tarzda ifodalanadi va dalillar bilan mustahkamlanadi.

Aynan essening ushbu turi yuqorida aytib o'tilgan ona tili fanidan Milliy sertifikat imtihonlari uchun mo'ljallangan. Bu esse turi nisbatan katta hajmga ega bo'ladi va asosan unda qolip mavjud. 3 qismdan iborat: kirish,asosiy va xulosa.

¹ Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant: ilmiy//O.Madayev va [boshqa].- Toshkent:Turon zamin ziyo,2017.- 104b.

Esse yaratuvchi o'z fikrlari va argumentlarini shu qismlarga mohirona joylashtirishi kerak. Deyarli har bir qismni xat boshi bilan yozilishi shart. Kirish qismda mavzuga oid ,uning asosiy qism bilan bog'lovchi va mazmunni ochib beruvchi fikr keltiriladi.

Shu o'rinda bir tavsiya: esse mavzusi qayta ishlanib(paraphrasing) , asosiy qismda yoritmoqchi bo'lgan fikrga bog'lab ketiladi. Tezis va iqtibosdan foydalaniladi. Asosiy qismda kamida 3- 4 ta fikr bildiriladi, mana shu fikrlar hayotiy dalillar bilan asoslansa, esse yanayam jonli va mazmunli chiqadi.

Xulosa qismida mavzuga, mavjud muammoli vaziyatga shaxsiy qarashlar asosida shaxsiy fikrlardan kelib chiqib xulosa yoziladi. Mening fikrimcha ,xulosa o'rnida shuni aytmqchimanki, xullas, aytmqchimanki kabi jumlar qo'llaniladi.

Bundan tashqari, Baxtiyor Mengliyev va boshqalar hammuallifligida yaratilgan mavjud 10-sinf darsligida ham argument essegga shunday ta'rif berilgan:

“Bunday esseda muallif biror masalada o'z nuqtayi nazarini fakt va dalillar bilan qo'llab-quvvatlaydi. Avval har ikki tomon uchun faktlar keltiriladi, yakunda kuchli dalillar bilan o'z pozitsiyasini himoya qiladi”.²

Tahliliy esse (interpretatsion esse, sharhlovchi esse, tasvirlovchi esse):

- muallifning muayyan mavzu bo'yicha umumiy qarashlari bayon etiladi;
- asosiy e'tibor berilgan holatni tushuntirish, tasvirlash, aniqlash va yoritishga qaratiladi, tahlil qilinadi;
- asosli ma'lumotlar, faktlar, obyektiv fikrlar hamda real misol va dalillar keltiriladi.

Bu esse turi ham ancha keng tarqalgan. Xususan, mavjud ona tili darsliklaridan hisoblangan 6-sinf ona tili darsligiga kiritilgan. Quyida shu esse turidan namuna keltirib o'taman.³

² Ona tili 10[Matn]: 10-sinf uchun darslik/ B.Mengliyev.- Toshkent:Respublika ta'lim markazi.,2022. -224b.

³ Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik /K.M.Mavlonova [va boshq.].-Toshkent: Respublika ta'lim markazi,2022.-224b.



Hikoyaviy esse (narrative esse, voqeaband esse):

- muallif yoki boshqalarning shaxsiy hayoti (faoliyati) davomidagi biror sujetga asoslaniladi;
- voqea esse formatida mantiqiy izchillikda tasvirlanadi hamdauning ahamiyati bayon etiladi;
- esseda tasvirlangan voqea-hodisa o'quvchida yorqin tasavvur hosil bo'lishi lozim.

Qiyosiy esse (tahliliy esse, solishtirma esse):

- berilgan savol asosida ikki xil holat bo'yicha fikr yuritiladi;
- ularning o'xshashliklari va farqlari, ijobiy va salbiy xususiyatlari , afzalliklari va kamchiliklari borasida mushohada qilinadi;
- mavjud tafovutlar va o'xshashliklar izchillikda tushuntiriladi.

Sabab va oqibat essesi (muammo va yechim essesi):

- savol asosida berilgan vaziyatning sabablari hamda ularning oqibatlari keltiriladi;
- biror holatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolar qayd etiladi va yechimlar taklif qilinadi;
- fikrni asoslashda izchillikka va mantiqiy ketma-ketlikka amal qilinadi.⁴

Umuman olganda, ushbu esse turlari o'quvchilarda o'z fikrlarini erkin bayon qilish va tafakkur doirasini kengaytirish bilan birga, ularda zaruriy hayotiy

⁴ Gulshan Asilova. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari.2024.B.92.
<https://scientific-jl.com/>

kompetensiyalarni ham rivojlantiradi: vaziyatni tahlil qilish, muammoga xos yechim topish, sabab va oqibatlarni aniqlash, bir xil ikki vaziyatni qiyoslash kabi.

Esseni muvafaqqiyatli tarzda to'liq va mazmundor qilib yozish uchun avvalo, o'quvchilar grammatik va mazmuniy xatolarining ustida ishlashi kerak.

Aytilganidek: Grammatika grammatika uchun emas, balki grammatika fikrning aniq va lo'nda ifodasi uchun".

"Boshlang'ich sinflarda rus tili o'qitish metodikasi" nomli darslikda mantiqiy va kompozitsion xatolar 5 guruhga ajratiladi:⁵

- 1)faktlar, voqelar va boshqalar takrori;
- 2)muhim biror gapni tushirib qoldirish;
- 3)sabab-natija bog'lanishlarining buzilishi;
- 4)payt izchilligining buzilishi;

5)muvofiglashmaydigan narsalarni bir qatorda joylashtirish (Bola yozdagi voqeani gapira turib, kunduzi nima qilganiga to'xtaladi. Yoz bilan kunduzni bir joyda gapirish noto'g'ri).

Aytib o'tilgan xatolar deyarli ko'p esse yozuvchilarida uchraydi. Bunga sabab qilib fikrni jamlay olmaslik deb ayta olamiz. Negaki bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarni chalg'itadigan omillar ko'p. Shuning uchun o'quvchilarga birdaniga katta hajmli esse matnini yozishni talab qilishdan oldin ularga qisqa hajmli matn tuzishni va yuqoridagi xatolarni takrorlamasligini nazoratga olish kerak. Qisqa matn tuzdirib olishdan maqsad- ulardagi xatolar turini(grammatik yoki mazmun bilan bog'liq)aniqlab olish. Shunga qarab ularga yo'nalish beriladi va xatolarini biroz bo'lsa ham oldi olinadi. Bundan tashqari, ba'zi bir o'quvchilar ma'lum bir esse mavzusi bo'yicha fikrlari yetishmasligidan qiynaladi. Oqibatda, esse mazmuni mavzusidan uzoqlashishi mumkin. Bunday holatdagi xatolarni yo'qotish uchun o'qituvchi-o'quvchi birgalikda muhokama davralarini uyushtirishi mumkin. Bunda hamma o'quvchilar berilgan mavzuning

⁵ М.Р.Львов, В.Г.Горецкий, О.В.Сосновская. Методика преподавания русского языка в начальных классах. – Москва: Издательский центр "Академия", 2007. – 328 с.

yaxshi va yomon taraflarini, sabab va oqibatlarini aytishi yoki yozishi so'raladi.

Qolaversa , esse yozishda bor haqiqatni yoritish va muallifning hayotdagi yoki bu voqelik asosidagi shaxsiy fikri muhim. Va shu o'rinda o'quvchilarning esse yozishga bo'lgan ko'nikmalarini rivojlantirishda esseda har bir o'quvchi o'z fikrini ifodalashi va buning uchun mustaqil fikrga , keng tafakkur bilan fikr yurita olishga ega bo'lishi va ana shu o'z shaxsiy fikr – mulohazalarini, munosabatini yozma nutqda ifodalay bilishi asosiysi ekanligini anglatish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, essening maqsadi- o'quvchini faol fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni ongli qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Muhimi, keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant: ilmiy//O.Madayev va [boshq].- Toshkent: Turon zamin ziyo,2017.-104b.
2. Ona tili 10[Matn]: 10-sinf uchun darslik/ B.Mengliyev.- Toshkent:Respublika ta'lim markazi.,2022. -224b.
- 3.Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik /K.M.Mavlonova [va boshq.].-Toshkent: Respublika ta'lim markazi,2022.-224b.
4. Gulshan Asilova. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari.2024.B.92.
5. М.Р.Львов, В.Г.Горецкий, О.В.Сосновская. Методика преподавания русского языка в начальных классах. – Москва: Издательский центр “Академия”, 2007. – 328 с.